

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

KARIMOV MA'RUFJON MAMIRJONOVICH

**ABDULLA QODIRIY "O'TKAN KUNLAR" ROMANINING
INGLIZCHA TARJIMALARIDA TASVIRIY VOSITALARNING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI
(sinekdoxa, o'xshatish va kinoya misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik,
chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa (PhD) disseratsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Karimov Ma’rufjon Mamirjonovich

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida tasviriy vositalarning lingvokulturologik tadqiqi (sinekdoxa, o‘xshatish va kinoya misolida) 3

Karimov Marufjon Mamirjonovich

Linguistic-cultural study of descriptive terms in the English translations of the novel “Days Gone by” by Abdulla Kadiri (in the example of synecdoche, simile and irony)..... 25

Каримов Маъруфжон Мамиржонович

Лингвокультурологическое исследование изобразительных средств в английских переводах романа Абдуллы Кадири «Минувшие дни» (на примере синекдохи, сравнения и иронии) 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ 52

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

KARIMOV MA'RUFJON MAMIRJONOVICH

**ABDULLA QODIRIY "O'TKAN KUNLAR" ROMANINING
INGLIZCHA TARJIMALARIDA TASVIRIY VOSITALARNING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI
(sinekdoxa, o'xshatish va kinoya misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik,
chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa (PhD) disseratsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.3.PhD/Fil1146 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Andijon davlat chet tillar institutining veb-sahifasida (www.adchti.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xoshimova Dildora Madaminovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shaxabitdinova Shoxida Xashimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Abduvaliyev Maxamatjon Arabovich
filologiya fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning "29" dekabr 2023-yil soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shoh ko'chasi, 5-uy. Tel: (74) 223-42-76; faks: (74) 223-42-76 e-mail: adchti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (24.11 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shoh ko'chasi 5-uy. Tel: (74) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "20" dekabr kuni tarqatildi.
(2023-yil "___" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)



D.A.Rustamov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

A.Dj.Ataboyev
*Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, f.f.f.d (PhD)

M.I.Umarxodjaev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon xalqlari integratsiyalashuvi natijasida dunyo hamjamiyati vakillari bir-birining madaniyatini har tomonlama o'rganishga hamda shu asnoda turli sohalarida o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatishga intilmoqda. Turli xalqlar madaniyatining o'zaro integratsiyalashuvi o'sha xalqlarning san'ati, adabiyoti kabi muhim sohalarini aloqalarning rivojlanishida ko'rish mumkin. Har qanday millatning madaniyati, urf-odatlar, turmush tarzi kabi o'ziga xos jihatlari badiiy adabiyotda keng ko'lamda namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, jahon adabiyoti durdonalari tarjimalarini qiyosiy o'rganish nafaqat badiiy asar sir- sinoatlariga oshno qiladi, balki o'sha xalq madaniyati, qadriyatlari, urf- odatlaridan ham xabardor qiladi.

Dunyo xalqlari adabiyoti durdonalariga ma'naviy boylik bo'lib qo'shilgan A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining 2018-yilda Fransiyada Kerol Yermakova hamda 2019-yilning 27-dekabrida O'zbekistonning AQShdagi elchixonasida Mark Riz tomonidan qilingan ingliz tilidagi tarjimasining taqdimot marosimi o'tkazilishi o'zbek adabiyoti va shu orqali o'zbek madaniyatiga dunyo hamjamiyati tomonidan katta qiziqish bildirilayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonning milliy ma'naviy boyligiga aylangan "O'tkan kunlar" romani xorijlik o'quvchilar orasida ham o'z muxlislariga ega bo'lib, ayni chog'da asar xorij o'quvchisini o'zbek xalqining ma'naviy olami, yuksak badiiy tafakkuri va umrboqiy qadriyat va an'alariga oshno etadi. Respublikamiz bo'ylab olib borilayotgan islohotlar jarayonida "Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanishi ilm-fan va texnika sohalarining so'nggi yutuqlaridan mamlakatimiz yoshlarini boxabar etishda adekvat tarjimalarni amalga oshirish va buning uchun tarjimashunoslik sohasiga doir ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish"¹ va shu orqali yetuk tarjimonlarni tayyorlash vazifasini yanada dolzarblashtirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi 292-son "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 610-son Qarori, 2018-yil 10-oktyarbdagi O'zbekiston

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2018 йил 5 мартдаги Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани Исоқхон Ибрat номидаги мактаб-интернатига таширидаги нутқи. <http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-okhon-t-ra-ibrat-mazhm>

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarini o’quv adabiyotlari bilan ta’minlash to’g’risida”gi 816-son Qarori, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O’zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o’rgatishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Badiiy tarjimaning lingvistik va ekstralingvistik muammolariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari yurtimiz va xorij olimlari tomonidan olib borilgan. Mamlakatimizda badiiy matndagi tasviriy vositalar, ma’nodosh hamda ko’p ma’noli(polisemik) so’zlarning tarjimada aks etishi, frazeologik birikmalarning qay tarzda berilishi, bir millatga tegishli milliy-madaniy jihatlar, badiiy tarjimaning stilistik, pragmatik hamda lingvokulturologik masalalariga oid tadqiqotlar G’.Salomov², Q.Musayev³, M.Umarxodjayev⁴, M.Xolbekov⁵, N.Otajonov⁶, G’.Xoshimov⁷, Sh.Shaxobitdinova⁸, M.Abduvaliyev⁹, D.Xoshimovalarning¹⁰ ishlarida amalga oshirilgan.

Jahon tilshunosligida O.Kade, L.S.Barxudarov, N.K.Garbovskiy, S.F.Goncharenko, G.V.Denisova, V.I.Ermolovich, T.A.Kazakova, Yu.N.Karaulov, V.N.Komissarov, N.A.Krasavskiy, A.Lilova, Z.D.Lvovskaya, L.Mikulina, A.D.Shveytser¹¹ kabi olimlar tomonidan tarjimaning nazaiy masalalari, badiiy

² Саломов Г. Бадий таржиманинг лексик-фразеологик масалалари. – Тошкент: Фан, 1960. – Б.94

³ Мусаев К. Стилистические вопросы художественного перевода с английского языка на узбекский. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1967. – Б.25

⁴ Умарходжаев М. Основы фразеологии. Дис... д-ра филол. наук. – М.: 1981. – С.77-100

⁵ Холбеков М.Н. Таржимашунослик ва таржима танқиди. – Тошкент: «Наврўз» нашриёти, 2015. – Б.112

⁶ Отажонов Н. Бадий таржима ва илмий шарҳ. Филол. фан ном. ... дисс. – Тошкент, 1978. – Б.84-96

⁷ Хошимов Г. Типология сложных предложений разносистемных языков. –Ташкент, 1991. – С. 90-95

⁸ Набиева Д., Нурмонов А., Шахобитдинова Ш., Искандарова Ш. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент, 2001. –Б.110-114 Ўзбек тилининг назарий грамматикаси.

⁹ Хошимов Г. Типология сложных предложений разносистемных языков. –Ташкент, 1991. – С. 90-95

¹⁰ Xoshimova D. “Boburnoma“ matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi. filol.fan...dok.(DSc) dis.avtoref. – Toshkent, 2018. – B.74

¹¹ Каде О. Проблемы перевода в свете теории коммуникации / О.Каде // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – М.: Международные отношения, 1978. – С.69-90.; Бархударов Л.С. Общелингвистическое значение теории перевода / Л.С.Бархударов // Теория и критика перевода. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1962. – С.8-14.; Бархударов Л.С. Язык и перевод / Вопросы общей и частной теории перевода. – Изд. 2-е. – М.: Изд-во ЛКИ, 2008. – 240 с.; Гарбовский Н.К. Теория перевода. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 2004. – 544 с.; Гончаренко С.Ф. Поэтический перевод и перевод поэзии: константы вариативности / С.Ф.Гончаренко // Тетради переводчика. Под ред. проф. С.Ф.Гончаренко. – М.: – 1999. – С.107-122.; Денисова Г.В. Границы перевода. Учебное пособие /Г.В.Денисова. – М.: Издательство МГУ, 1998. - 80 с.; Ермолович В.И. Проблемы изучения психологических аспектов перевода / В.И.Ермолович // Тетради переводчика. Подред. проф. С.Ф.Гончаренко. – М.: – 1999. – С.45-62.; Казакова Т.А. Коммуникативно-прагматические основы художественного перевода. Автореф. дисс. на соискание степ. доктора филол. наук (10.02.20) / Т.А.Казакова. – М.:1989. – 32 с.; Караулов Ю.Н. О способах достижения функциональной эквивалентности в переводе / Ю.Н.Караулов // Сборник научных трудов МГЛУ. – М.:1996. – С.76-91.; Комиссаров В.Н. Общая теория

tarjima muammolari, tarjimaning psixologik aspekti, badiiy matn tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari, tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik muammolari atroflicha tadqiq etilgan. Tarjimaning lingvomadaniy va kognitiv, kommunikativ va funksional aspekti, tarjimada olam lisoniy va kognitiv manzarasining namoyon bo'lishi masalalari N.Valeeva, Ye.A.Gut, V.Z.Demyankov, S.E.Pastuxova, Ye.V.Nikitina, D.R.Raxmatullina, I.N.Fursovaning ishlari¹² da yoritilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tadqiqot ishlarning aksariyati badiiy tarjima muammolariga bag'ishlangan. D.Xoshimova¹³ "Boburnoma" matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi mavzusidagi dissertatsiyasida "Boburnoma" matnidagi tasviriy vositalar tarjimasining leksik, semantik, sintaktik-stilistik, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlarini ochib bergan. Z.Bazarov¹⁴ badiiy tarjimada leksik-stilistik bo'yodkorlikni saqlash muammolari to'g'risida tadqiqot olib borgan. O'.Qo'ldoshev¹⁵ ning dissertatsiya ishida konversiv so'zlarni tarjima qilishning semantik va lingvokulturologik tadqiqi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan. G.Kenjayeveva¹⁶ "O'tkan kunlar" romani tarjimalarida milliy manzaraning lingvomadaniy ifodasi, S.Nazarov¹⁷ esa "Faust" asarining turkiy tillardagi tarjimalarida tasviriy vositalarning ifodalanishi haqida tadqiqot olib borgan.

Tahlil qilib chiqilgan ishlardan farqli o'laroq, bizning tadqiqot ishimizda sinekdoxa, o'xshatish hamda kinoya leksik-stilistik vositalar va frazeologik

перевода / В.Н.Комиссаров. – М.: Изд-во «ЧеРо», 1999. - 136 с.; Комиссаров В.Н. Общая теория перевода. Проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых: учебное пособие. – М.: ЧеРо, 1999. – 136 с.; Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М.: ЭТС, 1999. – 192 с.; Красавский Н.А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах. – Волгоград: Перемена, 2001. - 494 с.; Лилова А. Введение в общую теорию перевода. Пер. с болг. / Под общей редакцией П.М.Топера / А.Лилова. – М.: Высшая школа, 1985. - 254 с.; Львовская З.Д. Теоретические проблемы перевода. – М.: Высшая школа, 1985.; Львовская З.Д. Современные проблемы перевода: пер. с исп. – М.: Издательство ЛКИ, 2008. - 224 с.; Микулина Л. Национально-культурная специфика и перевод / Л.Микулина // Мастерство перевода. – М.: Советский писатель, 1979. – С.79-99.; Швейцер А.Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988. - 215 с.

¹² Валеева Н.Г. Теория перевода: культурно-когнитивный и коммуникативно-функциональный аспекты: монография / Н.Г.Валеева. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: РУДН, 2018. - 244 с.; Gutt E.A. Translation and Relevance. Cognition and Context. – Oxford: Basil Blackwell, 1991. – P.56.; Когнитивная, или когнитивно-деятельностная, теория перевода//<https://studfile.net/preview/9173905/page:17/>(мурожаат санаси: 04.12.2022) Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литературном языке и в научном языке//Вопросы филологии. – М.: 2001. – №1. – С.35.; Пастухова С.Е., Никитина Е.В. Когнитивный подход в переводоведении//Приоритетные научные направления: от теории к практике. Сборник материалов XXXVI Международной практической конференции. –М.: 2017. – С.157-163.; Ракматуллина Д.Р. Когнитивные модели и лингво-когнитивный анализ в переводоведении// <https://scipress.ru/philology/articles/kognitivnye-modeli-i-lingvokognitivnyj-analiz-v-perevodovedenii.html>; Фурсова И.Н. Когнитивный подход в переводоведении // Lingua Mobilis. Научный журнал. – Челябинск, 2013. – С. 66-73. Режим доступа: <https://linguamobilis.ucoz.ru/2013/2013-6-45.pdf> (мурожаат санаси: 8.04.2022)

¹³ Хошимова Д. «Бобурнома» матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. Филол.фан...док.(ДSc) дис.автореф. – Тошкент, 2018. – Б.74

¹⁴ Базаров З. Бадий таржимада лексик-стилистик бўёдорликни сақлаш муаммолари (А.Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романининг инглизча таржималари мисолида). Фал.фан. фил.автореф. – Самарқанд, 2020. – Б.75-84

¹⁵ Қўлдошев Ў. Конверсив сўзларни таржима қилишнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи (инглиз ва ўзбек бадий прозаси материалида). PhD автореф. – Самарқанд, 2022. – Б.90

¹⁶ Кенжаева Г. Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романи таржималарида миллий манзаранинг лингвомаданий ифодаси Фал.фан. фил.автореф. – Бухоро, 2021. – Б.30

¹⁷ Назаров С. Й.В.Гёте «Фауст» асарининг туркий тиллардаги таржималарида тасвирий воситаларнинг ифодаланishi Фал.фан.автореф. – Андижон, 2021. – Б.45

birliklarning asl badiiy matnda qo‘llanish xususiyatlari va ularning tarjimada aks etish, qayta tiklanish usullari, ushbu lisoniy birliklarni tarjima qilish strategiyalari hamda uch xil tarjima nusxalarini qiyoslash asosida tarjima qilish texnologiyasi tizimlashtiriladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Zamonaviy tarjimashunoslikning dolzarb masalalari” mavzusi bilan bog‘liq ravishda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi A.Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida leksik-stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash, aks ettirish hamda qayta tiklash muammolarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilidan ingliz tiliga qilingan tarjimalarning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish va konnotativ ma’noga ega leksik birliklarning tarjima usullarini belgilash;

sinekdoxa, o‘xshatish hamda kinoya leksik-stilistik vositalarining qo‘llanishi bilan bog‘liq badiiy matnning pragmatik muammolarini ochib berish;

sinekdoxa, o‘xshatish hamda kinoya leksik-stilistik vositalarni tarjima qilish tuzilmalarini ishlab chiqish;

A.Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llangan sinekdoxa, o‘xshatish hamda kinoya stilistik vositalarini hamda frazeologik birliklarning stilistik xususiyatlarini tarjima matnida qayta aks ettirish yo‘llarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani va uning ingliz tiliga I.To‘xtasinov, O.Mo‘minov, A.Hamidov, K. Yermakova hamda M.Riz tomonidan qilingan tarjimalari tanlandi.

Tadqiqotning predmeti. A.Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida leksik-stilistik xususiyatlarini chog‘ishtirma tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Ishimizda qiyosiy tahlil, leksik-semantik, statistik, statistik, kontekstual va pragmatik tahlil metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

badiiy matnga xos konnotativ ma’noga ega leksik birliklarning tag ma’nolarini izohlab ko‘rsatish, asliyat matnidagi ma’nolariga mos ekvivalentlarni topish sabablariga ko‘ra badiiy, implikasiya va eksplikatsiya amallari vositasida tarjima qilish samaradorligi asoslangan;

badiiy matnning pragmatik qiymatini tarjimada qayta yaratishda asliyat matnidagi tasviriy vositalarning o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi maqsadida leksik-semantik va lingvokulturologik omillarning ustuvorligi ochib berilgan;

sinekdoxa, o‘xshatish, kinoya ifoda vositalari badiiy matnda qo‘llanishining kognitiv, pragmatik, lingvomadaniy jihatlarini yoritib berish asnosida konseptual-pragmatik asoslari aniqlangan;

sinekdoxa, o‘xshatish hamda kinoya stilistik vositalarini tarjima qilish tuzilmalari ishlab chiqib, ularning stilistik xususiyatlarini tarjimada analogiya, dominant leksika asosida aks ettirish usullari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

asliyat matndagi stilistik bo'yoqdorlikni aks ettirish holati tarjima tilida mavjud konnotativ ma'nolarga ega bo'lgan leksik birliklarni tarjima qilish usullaridan foydalanish taklif etilgan;

badiiy matnda stilistik bo'yoqdorlikni hosil qiluvchi sinekdoxa, o'xshatish hamda kinoya stilistik vositalarni tarjima qilish strategiyalaridan filologlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish imkoniyati belgilab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida qo'llangan yondashuv, muammoning aniq qo'yilganligi va vositalarning zamonaviy lingvistik nazariyalarga mosligi hamda qiyosiy tahlil kabi usullar vositasida asoslanganligi, OAK tasarrufidagi maxsus hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalarning qat'iyligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalar joriylanishining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tilidagi badiiy asarlarda qo'llanilgan lingvokulturologik xususiyatlarning ingliz tilidagi tarjimalari tahlilining nazariy xulosalaridan tilshunoslik, tarjimashunoslik, stilistika hamda madaniyatlararo muloqot yo'nalishlaridagi tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak tarjimonlar va tarjimashunoslar oldida turgan dolzarb masalalar, jumladan asliyatdagi madaniy xarakterga ega bo'lgan ma'nolarni ona tiliga tarjima qilish samaradorligini oshirish, tarjimani qayta yaratish muammolariga yechim bo'la oladigan muhim qo'llanma bo'lishi mumkinligi, tadqiqot natijalari va xulosalari mamlakatimizdagi bir qator oliy ta'lim muassasalarida qiyosiy adabiyotshunoslik, matn tahlili, tarjimashunoslik fanlari bo'yicha ma'ruza matnlari tayyorlash, darslik hamda o'quv lug'atlari yaratishda foydali material bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanining inglizcha tarjimalarida tasviriy vositalarning lingvokulturologik tadqiqi mavzusida olib borilgan tadqiqot asosida:

badiiy matnga xos konnotativ ma'noga ega leksik birliklarning tag ma'nolarini izohlab ko'rsatish, asliyat matnidagi ma'nolariga mos ekvivalentlarni topish sabablariga ko'ra badiiy, implikasiya va eksplikatsiya amallari vositasida tarjima qilish samaradorligi o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish kabi ilmiy xulosalardan Andijon davlat universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-18-raqamli "Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlari va metodologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida foydalanilgan va o'quvchiga tasviriy vositalar pragmatik tarjimasining muhim usullarini, roman tarjimalari mohiyatini o'quvchiga pragmatik etkazish usullarini ko'rsatib berishga xizmat qilgan (Andijon davlat universiteti 2023-yil 28-yanvardagi 39-01-248-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ommaviy nutqiy madaniyatni shakllantirishga doir aniq diskurslarga doir tavsiyalarining nazariy asosi ta'minlangan;

badiiy matnning pragmatik qiymatini tarjimada qayta yaratishda asliyat matnidagi tasviriy vositalarning o'quvchiga tushunarli bo'lishi maqsadida leksik-semantik va lingvokulturologik omillarning ustuvorligi kabi masalalar borasidagi tadqiqot natijalarida Farg'ona davlat universitetida 2020-2022-yillarga mo'ljallangan UZ800-20-GR-0040 "2020 Access Microscholarship Program Fergana State University" xalqaro loyiha doirasida foydalanilgan (Farg'ona davlat universiteti 2023-yil 5-apreldagi 01-13-34-son ma'lumotnomasi). Natijada ta'lim va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlar yanada samarali tashkil etilgan;

sinekdoxa, o'xshatish, kinoya ifoda vositalari badiiy matnda qo'llanishining kognitiv, pragmatik, lingvomadaniy jihatlarini yoritib berish asnosida konseptual-pragmatik asoslarini ilmiy tadqiq etishga doir natijalaridan Andijon viloyat televideniyesi muharririyati tomonidan tayyorlangan "Assalom Andijon", "Xazinamsan kitob" ko'rsatuvlari senariysini tayyorlashda (2021-2022-yillar davomida) foydalanildi. (Andijon viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 17-fevraldagi 01-24/14 - son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek tarjimachiligi va uning taraqqiyot tendensiyalari, shu bilan birga badiiy tarjima va unda milliy o'ziga xoslikning ifodalanishi haqida ma'lumot berildi, natijada teletomoshabinlar tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik borasidagi yangiliklardan xabardor bo'lishda ilmiylik mezoni ta'minlandi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy- amaliy anjumanida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 4 ta maqola, jumladan, 3 ta mahalliy va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 175 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **"Kirish"** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari aniqlangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, ishning tuzulishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"O'tkan kunlar"** romanidagi tasviriy vositalarning ilmiy-nazariy asoslari deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi fasli **"O'tkan kunlar"** romanidagi tasvir-ifoda vositalarining leksik- semantik tahlili"ga bag'ishlangan bo'lib, unda xorij va o'zbek olimlari tomonidan tasviriy vositalarning ishlatilishi, asl mohiyati ko'plab ta'riflar va turli qarashlar orqali o'z aksini topgan, shu bilan birga tadqiq etilayotgan muammoga doir yondashuvlar bayon etilgan.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tili muammolari bilan shug'ullanishning jiddiy tus olganligi, garchi ona tilimizdagi barcha birliklar badiiy adabiyotda tasvir vazifasini bajarsa-da ularning troplar va uslubiy figuralar deb nomlanuvchi katta bir guruhining adabiy asardagi lisoniy va badiiy estetik vazifasini batafsil tahlil qilish hali ko'plab tadqiqotlarning yaratilishini taqazo qiladi. Xususan, bu "vositalarning tilimizdagi funksional chegaralanishi - uslubiy xoslanishi masalalari ham ularning hozirgi tilshunosligimizdagi variantlarini mumtoz adabiyotimizdagi ko'rinishlari bilan taqqoslab o'rganish ham o'qish-o'qitish jarayonida foydali va qiziqarli bo'lishi mumkin"¹⁸ligi tilshunoslar tomonidan xulosalangan.

"Badiiy adabiyot tilida uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tilning ifoda tasvir vositalari ham badiiy uslubning boshqa funksional uslublar orasidagi mavqeini belgilovchi eng muhim alomatlardan biri sanaladi"¹⁹. Chunki til vositalarining majoziy, ya'ni ko'chma ma'nolarda hamda obrazli tasvir uchun turli shakllarda qo'llanish zarurati ma'lum darajada tilning barcha funksional uslublarida bor bo'lsa-da, ammo ularning badiiy uslubdagichalik bemalol, erkin, mukammal va keng doirada foydalanishning imkoniyati yo'q. Boshqa uslublarda asosan ko'pchilikka ma'lum bo'lgan, tilda qisman turg'unlik kasb etgan tasviriy vositalarga murojaat qilinadi.

Sinekdoxada so'zning hosil qiluvchi va hosila ma'no ya'ni biri butun, ikkinchisi uning bo'lagi bo'lishdek munosabatni bildiradi. A.A.Reformatskiy²⁰ bu hodisani uch ko'rinishga bo'lib, hosil qiluvchi va hosila ma'nolar referenti semantikasi munosabatini asos qilib oladi. T.Aliqulov sinekdoxani lingvistik va poetik degan ikki ko'rinishga bo'lib ko'rsatadi. Bu o'rinda u poetik sinekdoxa termini ostida nutqiy sinekdoxani tushungan bo'lsa kerak. Lekin, har qanday nom bilan atamasin, u uslubiyatning tekshirish ob'ektidir²¹. Sinekdoxani tasnif qilishda faqat bir nuqtai nazarni e'tiborda tutishga to'g'ri keladi: u ham bo'lsa so'zning hosil qiluvchi leksik ma'nosi butun referentni ifodalaydimi yoki bo'lak referentni ifodalaydimi? Shuni nazarda tutilsa, sinekdoxalar: 1.bo'lak nomidagi sinekdoxa: so'zning hosil qiluvchi ma'no referenti bo'lak bo'lib, hosila ma'no referenti uni o'z ichiga olishi bilan xarakterlanuvchi sinekdoxadir, ya'ni, bunda "butun" orqali "qism" ifodalanadi. U lotin tilida *totum pro parte*²² - "butun bo'lak nomi bilan" ataladi. Masalan, "*Dasturxon yonida Kumushbibining latif bilagiga Otabek oltin uzuk solar ekan, ul yerga qarag'an holda edi.*

-Men sizga hech narsa ham hozirlimag'an edim..." (O'tkan kunlar. 2009; 67).

Mazkur jumlada qo'llangan "latif bilagigiga Otabek oltin uzuk solar" birikmasida sinekdoxa tasvir vositasi orqali ko'chma ma'no ifodalagan. Professor

¹⁸ Базаров З. Бадий таржимада лексик-стилистик бўёқдорликни сақлаш муаммолари (А.Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романининг инглизча таржималари мисолида). Фал.фан.фил автореф. – Самарқанд, 2020. – Б.75-84

¹⁹ Набиева Д., Нурмонов А., Шаҳобитдинова Ш., Искандарова Ш. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент, 2001. – Б.110-114.

²⁰ Реформатский А.А. Введение в языковедения. – М.: – С.83-84.

²¹ Аликулов Т. Полисемия сувестительных в узбекском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1966. – С.18

²² Аликулов Т. Полисемия сувестительных в узбекском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1966. – С.18

Bahodir Karim aytganidek, bunda “normadan og‘ish(me’yordan chetga chiqish)” hodisasi o‘quvchining nazaridan chetda qoladi. Ushbu “saktalik”²³ ko‘chma ma’noda qo‘llanganda “kamchilik, me’yordan chetga chiqish” mazmunini ifodalaydi. Bizningcha, ushbu birikmada qo‘llangan ifoda vositasini anglash kitobxonda qiyinchilik tug‘darmasligini hisobga olsak, badiiy bo‘yoqdorlikni oshirishga xizmat qilgan. “Latif” leksik birligi arab tilida “chiroyli, nozik” ma’nolarini bildiradi.

2) butun nomidagi sinekdoxaga bo‘linadi. Butun nomidagi sinekdoxa so‘zning hosil qiluvchi ma’nosi referenti butun bo‘lib, bo‘lakni ifoda etgan hosila ma’no referentini o‘z qamroviga olgan holatdagi sinekdoxadir. Uni lotin tilida *pars pro toto*- “bo‘lak butunning nomi bilan” deyiladi.²⁴ Masalan, *Usta Olim oshga sabzi bosish bilan ovora edi* (O‘tkan kunlar. 2009; 237) gapidagi osh so‘zi “palov” hosila ma’nosida voqelangan gap. Bu so‘zning hosil qiluvchi ma’nosi “umuman issiq ovqat”ni bildiradi. Palov issiq ovqatning bir turidir. Bu o‘rinda butun nomi bilan bo‘lak atalgan. Bunday sinekdoxa fe‘l va sifat turkumiga oid so‘zlarda ham kuzatiladi.

1-jadval

Tasvir-ifoda vositalarining keltirilishi

Turi	“qism” orqali “butun” ifodasi	“butun” orqali “qism” ifodasi
sinekdoxa asliyat matnida	burchakdagi eshik, oshga sabzi bosish bilan ovora, qoldiraturg‘an tuyoqimiz, Boshga tushkanni ko‘z ko‘rar, ikki jon, ikki yurak	latif bilak (barmoq) yer yuziga (Turkiston va Buxoroga)
Turi	vositali o‘xshatishlar	vositasiz o‘xshatishlar
o‘xshatish asliyat matnida	go‘yo uning bag‘riga singib ketgan, burchakka tiqilg‘an uvadadek, qafaska yangi soling‘an qushdek, yana bir gap bordek, laxja cho‘g‘ kabi yonib turg‘an yurak o‘ti bilan sarxushdek, yulduz kabi ilma-teshuk jafokash oq kiyiz	sunbul islik sochlar, umidim yulduzi, orzum chechagi, hayotim tiragi
Turi	beozor kinoya	Sarkazm
kinoya asliyat matnida	Chunki manim o‘ng yonim bilan turg‘uzadigan kishim yo‘q, Pichoq yomon kesipti... Chumchuq so‘ydingizmi? Bu kun kech bo‘lib qoldi, yertaga ketarsiz, “Aqllik kishilarning o‘g‘illari ustidan qilg‘an ishlari albatta noma’qul bo‘lmas”. (O‘tkan kunlar. 2009; 146-147)	“begingizning ta’malari xon qizidadir, bundog‘ yigitlar uylanganlarida ham kishi qizini umr bo‘yi azob ichida o‘tkazadirlar, Og‘alarimizni chayon zahri bilan o‘ldirgan kim edi? Ket, to‘ng‘iz” (O‘tkan kunlar. 2009; 120).

²³ Бегматов Э., Мадвалиев А ва бошқалар Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2006. – Б.426

²⁴ O‘sha asar. – B.426

O'xshatishning tasviriy vosita sifatida badiiy adabiyotda tutgan o'rni, uning lingvistik tabiati tilshunoslikda yaxshigina o'rganilgan bo'lsa-da, qardosh halqlar tilshunosligida bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham o'xshatish o'zining nazariy bahosini olgan. Hatto boshqa tasviriy vositalarga nisbatan u birmuncha mukammal va atroflicha o'rganilgan deyish mumkin. R.Qo'ng'urov, M.Mukarramov, Yo.Ishoqovlarning tadqiqotlari o'xshatishlarning o'zbek tilida avvaldan mavjudligini tasdiqlaydi.

Darhaqiqat, badiiy uslubni tildagi har qanday qiyoslashlar qiziqitirmaydi, unga obrazlikka xizmat qila oladigan, chinakam ma'noda estetik vazifani bajaradigan o'xshatishlar kerak. Shu tufayli badiiy uslubda ijodkorning shablon detallaridan qochib, original o'xshatishlarga intilishi ahamiyatlidir. "O'xshatishning badiiy asar tilidagi ishtiroki uning yuzaga kelishiga xizmat qiladigan til vositalarining realligi va ko'pligidir"²⁵.

Xaqiqatdan, o'xshatishni yuzaga keltiradigan til vositalari bisyor, lekin badiiy adabiyot tilida qiyoslash ma'nosi ba'zan xech qanday o'xshatish vositalarisiz ham yuzaga kelishi mumkin: **"Umidim yulduzi, orzum chechagi, hayotim tiragi Kumushimga!"** (O'tkan kunlar. 2009; 193). Mazkur parchada qo'llangan "umidim yulduzi", "orzum chechagi" hamda "hayotim tiragi" birikmalarida o'xshatishning hech qanday vositalarsiz to'g'ridan-to'g'ri ko'chma ma'noni anglatganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni Otabek (oshiq) tilidan aytilgan ushbu o'xshatishlarda anchagina "normadan og'ish" hodisasi bor, lekin romanni o'qish davomida aksariyat kitobxonning Otabek bilan Kumush muhabbatiga xayrixohligi tufayli bu "og'ishlar" ko'zga tashlanmaydi. "Umidim yulduzi" birikmasi "men uchun eng yuqorida turuvchi umidim", "orzum chechagi" esa "orzuimdagi gul (yoki Kumush bilan birga amalga oshiriladigan orzularning chechakdek ko'pligi)", "hayotim tiragi" birikmasi "bor-yo'qligim, hayotimning mazmuni" kabi ma'nolarni ifodalamoqda. Bitta jumlaning o'zida uchta bevosita o'xshatishning qo'llanilishi, bizningcha o'sha maktubning yarmiga teng, jozibadorlik nafis aks ettirilgan. Chunki Otabek uchun Kumush qanday ahamiyatli ekanligini shu jumladayoq bildirgan edi

"Badiiy adabiyotda va ayniqsa, satira va yumorni o'z ichiga oluvchi xajviyotda ironiya va kinoya deb ataluvchi usul keng qo'llaniladi. Ironiya kulgini ifodalash usullaridan biri bo'lib, unda ifodaning tashqi shakli ichki mazmuniga zid bo'ladi. Ironiya sirtdan qaraganda, muayyan bir ma'noni anglatuvchi so'z va ibora, chuqurroq o'ylab ko'rilganda, kitobxonda kulgi ham uyg'otuvchi ichki mazmunga ega bo'ladi"²⁶. Kinoya "O'tkan kunlar" romanining Otabek hamda Kumush o'rtasidagi quyidagi dialogda yorqinroq aks etgan: *Otabek bu holga tushunolmay, Kumushning ko'ziga jiq to'lg'an yosh yana uni shoshirib qo'ydi. Shundog' ham bo'lsa kulimsirab:*

-Uyqudan so'l yoning'iz bilan turibsiz,- dedi.

-Chunki manim o'ng yonim bilan turg'uzadigan kishim yo'q... (O'tkan kunlar. 2009; 371). Kumush tilida frazeologik (idiomatik va ko'chma ma'noli)

²⁵ Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд, 1994. – Б.11

²⁶ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. –Тошкент, 2003. – Б.147

soʻzlar oz emas. Bu hol Kumushbibini obrazi jozibasini orttiradi. Kumushbibini Otabekdan ginahonlik qiladi, Zaynabga esa ochiq qarshi hujumga oʻtadi. Romanning kundoshlikka doir oʻrinlari xalq tili jihatidan eng goʻzal yozilgan sahifalardir. “Badiiy tasvir va ifoda vositalari tildan foydalanishda muayyan badiiy-estetik maqsadni koʻzlab umumodatiy normadan ogʻish natijasida yuzaga keladi va tasvirning jonli, ifodaning taʼsirli boʻlishiga xizmat qiladi. Bu xil ogʻishlar tilning turli sathlarida – fonetik (alliteratsiya, assonans), morfologik (asindeton, polisindeton), leksik (arxaizm, dialektizm, jargon), semantik (troplar), sintaktik (inversiya, soʻz takrori, sintaktik parallelizm, ellipsis, xiazm) sathlarda kuzatilishi mumkin”²⁷.

Kinoya nafaqat soʻzni teskari maʼnoda qoʻllash, balki jumlaning kinoyaviy maʼno ifodalaydigan tartibda tuzish va shunga mos ohang yordamida ham yuzaga chiqarilishi mumkin. Kinoyaviylik²⁸ – 1) komiklik koʻrinishlaridan biri, voqelikka gʻoyaviy-hissiy munosabat turi. Bu holda muallif butun asar voqeligiga yoki uning bir qismiga (ayrim xarakterlarga) nisbatan kinoyaviy munosabatda boʻladi, asar kompozitsiyasi kinoyaviy nuqtai nazarni ifodalashga mos ravishda quriladi. Ushu jumlada: “Yaxshi qoling endi. Otabek tushunolmay unga qaradi: Nima boʻldi sizga qayoqqa borasiz?”

–*Margʻilongʻa... -Bu kun kech boʻlib qoldi, ertaga ketarsiz.*” (Oʻtkan kunlar. 2009; 351). Bunda Otabek umuman Kumushning ketishini istamayotgani koʻrinib turibdi, yaʼni teskari maʼnoni ifodalagan beozor kinoya tasdiq orqali inkorni anglatmoqda.

2) badiiylik modusi: Kinoyaviylik satira va yumordagi kabi reallikni baholash bilangina cheklanmaydi, shu bois voqelik va badiiy asardagi har qanday ijtimoiy-maʼnaviy (baʼzan estetik) ideal yoki gʻoyaviy-hissiy munosabat kinoyaning obʼekti boʻla oladi. Shu maʼnoda kinoya “xukm ustidan hukmdir”²⁹. Yaʼni kinoyaviy asarning qabul qilinishi, kinoyaviy badiiyatning yuzaga chiqishida muallif-obʼekt-adresat uchligidagi adresatning ahamiyati yanada ortadi.

Badiiy adabiyot tilida uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tilning ifoda tasvir vositalari ham badiiy uslubning boshqa funksional uslublar orasidagi mavqegini belgilovchi eng muhim alomatlardan biri sanaladi. Chunki til vositalarining majoziy, yaʼni koʻchma maʼnolarda hamda obrazli tasvir uchun turli shakllarda qoʻllanish zarurati maʼlum darajada tilning barcha funksional uslublarida bor boʻlsa-da, ammo ularning badiiy uslubdagichalik bimalol, erkin, mukammal va keng doirada foydalanishning imkoniyati yoʻq.

Ishning ikkinchi bobi “Oʻtkan kunlar” romanidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjima qilish tamoyillari deb nomlanib, bunda snekdoxa, oʻxshatish va kinoyalarning tarjima matnida aks etish masalalari ochib berilgan hamda ularning tarjimashunoslikdagi ahamiyati koʻrsatib berilgan. Shu bilan birga bir tildagi sinekdoxa, oʻxshatish va kinoyalarning ikkinchi tilda qayta yaratilishi ekvivalentlik usuli (toʻliq, shakliy almashuv) va adaptatsiya (tarjima tili

²⁷ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2010. – Б.210

²⁸ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Фан, 2013. – Б.132-134

²⁹ Oʻsha asar. – Б.135

madaniyatiga muvofiq variant tanlash) usuli orqali amalga oshganligi romandan keltirilgan parchalar asosida tahlil qilib, yoritib berilgan.

Ushbu bobning birinchi fasli **“O‘tkan kunlar” romanidagi sinekdoxaning inglizcha tarjimalarda ifodalanishi**”ga bag‘ishlangan. Bunda asliyat matnidagi sinekdoxa asarning g‘oyasi uning uslubiy jihati bilan chambarchas tarzda bog‘liq bo‘lib, tarjimada sinekdoxaning roman voqealarini ochib berishdagi badiiy-estetik xususiyati qay tarzda qayta yaratilganligi ko‘rsatib berilgan.

Masalan: *“Yo‘lak panasidan mudhish bashara chiqib bir-ikki qayta unga kulib qarag‘ach, yo‘qoldi...”* (O‘tkan kunlar. 2009; 186). Romandagi salbiy qahramon bo‘lmish Homid tomonidan yozilgan ushbu soxta taloq xati va uni olib kelguchi “mudhish bashara” Kumushni deyarli aqlidan ozdiradi. “Mudhish bashara” birligida ham sinekdoxa orqali ko‘chma ma’no ochib berilmoqda. Ushbu jumlada “mudhish bashara” “ko‘rinishi niyati kabi xunuk, kishida qo‘rqinch uyg‘otuvchi” ma’nolarini bildiradi. Salbiy qahramonlardan biri Jannat tasvirlangan ushbu o‘rin roman o‘quvchisi qalbida nafrat uyg‘otadi, Kumushning xatdan keyingi taqdiri esa ayanchli bo‘ladi. Parchada keltirilgan sinekdoxa (qism orqali butun) ifoda vositasi tarjimasini uch tarjima matnlari misolida tahlilga tortamiz: “mudhish bashara” birikmasi I.To‘xtasinov tarjimasida “terrible woman’s face” (dahshatli ayol basharasi) shaklida beriladi. Bizningcha, tarjimonlar “terrible” (dahshatli) sifat aks etgan leksik birlikni “woman’s” (ayolning) so‘zidan keyin, ya’ni “woman’s terrible face” (ayolning dahshatli basharasi) tarzida berganida asliyatga muqobil bo‘lar edi. Yoki “horrible face” (mudhish bashara) birikmasi ekvivalent bo‘la oladi. Bu tarjimada tasviriy ekvivalent usulidan foydalangan.

“Mudhish bashara” birikmasi K.Yermakova tarjimasida esa “the frightening face of the hag” (qo‘rqinchli cho‘chqabashara) tarzida beriladi. Bunda salbiy qahramon Jannatni “qo‘rqinchli cho‘chqabashara” deb beradi, biroq mutarjim bir oz emotsiyaga berilishi natijasida birikmani mubolag‘alashtirib yuboradi. Bu birikma “the frightening face” (qo‘rqinchli bashara) deb berilishi asliyatga muvofiq keladi, “of the hag” (cho‘chqaning) leksik birligi qo‘shimcha konnatativ ma’no kasb etib, asliyatga nomuvofiqlik bo‘ladi.

O‘zbek tarjimonlari va K.Yermakovadan farqli o‘laroq M.Riz “mudhish bashara” birikmasini *terrible visage- daxshatli qiyofa* tarzida aks ettiradi. Tarjimon *previously described- ilgari tasvirlangan* deya ta’kidlaydi, chunki rostdan ham ushbu salbiy personaj tarjima matnining avvalida *a stunted and misshapen woman-pakana, rivojlanmay qolgan ayol* tarzida keltirgan. Tarjimon ushbu sinonimik birikmani asliyatga muqobil aks ettirgan, zero adib Jannatni “pakana xotin” degan edi.

“Tarjima variantini tanlash ma’lum darajada tarjimonning mahorati va shaxsiy hususiyatlariga bog‘liq. Lekin tarjimaning sub’ektivligi asl nusxa tarjimasining iloji boricha to‘laroq mazmunini bera olish bilan cheklanadi. Shunday qilib, tarjima uni amalga oshiradigan tarjimon tomonidan ob’ektiv munosabatlarning sub’ektiv voqelanishidir”³⁰. Tarjimalarni aniq va lo‘nda o‘z

³⁰ Тўхтасинов И. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш. Пед. фан. док. (DSc) дисс.... –Тошкент, 2018. – Б.242

aksini topishida tarjimonning subektiv yondashuvi ham muhim ahamiyatga ega. Sinekdoxaning “qism” orqali “butun” ifodasidagi ma’no ko‘chishi, “qism” o‘rnida “butun” ifodasiga ba’zan jins va tur munosabati tarzida ham qaralishi mumkin, sinekdoxa hosil qilinishida ko‘plik o‘rnida birlikni ishlatish, sinekdoxani hosil qilishda jins o‘rnida tur ifodalanishi misollar orqali tahlil qilinib, tarjimalarda qay tarzda ifodalanishi dissertatsiyada keng yoritib berilgan.

Ishning ikkinchi faslida “O‘tkan kunlar” romanidagi o‘xshatishning inglizcha tarjimalarda aks etish masalalari yoritilgan. O‘xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta’minlashda foydalanib kelinadi. Panini grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr) qadimgi³¹ hind poetik - grammatik traktlarida o‘xshatishlar poyetik figura sifatida o‘rganilgan va o‘xshatishning muntazam to‘rt unsuridan tarkib topishi ta’kidlangan, masalan,

1) o‘xshatiladigan narsa yoki sub’ekt: ... *namozshomgul kabi* o‘xshatish ifoda vositasi orqali guldagi shomdan keyin yopilish sifatini insonga nisbatan ko‘chirgan, bunda “kayfiyati yo‘qlik”, “tushkunlik” mazmunini ifodalagan. I.To‘xtasinov tarjimasida: *like a nightmare flower*(qo‘rqinchli guldek), deb beriladi. O‘xshatish leksik birligi orqali ma’no ko‘chishi tasviriy ekvivalentlik yo‘lida saqlanib qolingani biroq asliyat matnida nazarda tutilgan “tushkunlik, tundlik” tarjimada aks etmagan, “yopiq edi” frazeologik birikmasi “her eyes were closed” (ko‘zlari yumilgan) tarzida qayta tiklangan. Fikrimizcha, ushbu tarjima asliyat matnidan farq qiladi, ya’ni asliyatdagi ko‘chma ma’noda qo‘llangan frazema tarjimada oddiy ma’noga aylanib qolgan, asliyat tarjimasini ifodalab berilmagan. K. Yermakova tarjimasida: ... *like a Queen of the Night flower* (tun malikasi gulidek) deb adekvat usulda berilgan. *Queen of the Night flower* tunda gullaydigan yoki ochiladigan gul bo‘lganligi uchun biroz bo‘lsa-da ekvivalent bo‘la olgan. M.Riz tarjimasida esa o‘xshatish leksik birligi Kumushning xech narsa gapirmasligi, undagi tushkunlik kayfiyati tarjimada soda usulda ifoda etilgan. Tarjimon *refusing to reveal its secrets- sirlarini oshkor etishni istamadi* jumlasini qo‘shimcha qiladi;

2) unga o‘xshash bo‘luvchi narsa yoki ob’ekt: ... *saroy kabi bir hovli* o‘xshatishi I.To‘xtasinov tarjimasida: *a yard like a palace* (saroy kabi bir hovli) deb so‘zma-so‘z o‘giradi. K.Yermakova tarjimasini: *reminiscent of caravanseray* (karvonsaroyini eslatuvchi) tarzida beriladi, o‘xshatish ifoda vositasi tarjimada aks etmaydi. M.Riz tomonidan adekvat usulda *enormous yard- haybatli hovli* deb, tarjima muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Ushbu ... **yosh boladek aldanish ekan** jumlasini “boladek aldanish” aslida “osonlikcha aldanish” birikmasi o‘rnida qo‘llangan. Bu misolda aldanish-ob’ekt, boladek-etalon, belgi-bolaning yoshi kichikligidadir. I.To‘xtasinov tarjimasida: ... **like a boy** (boladek aldanish) deb so‘zma-so‘z tarjima qilgan. K.Yermakova tarjimasida:...**like puppies** (kuchuklardek) o‘xshatishi soddalik va ishonuvchanlikni ifodalaydi. Ayni haqiqat tarjimon ham bu joyda lingvokulturologik jihatiga ham e’tibor qaratgan. M.Riz esa

³¹ Maxmudov N. O‘xshatishlar - obrazli tafakkur mahsuli // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2011. – №3. – B.19-24

small, naive children (kichik, oddiy bolalardek) deb asliyatga muvofiq amalga oshirgan. “Tarjimon ham ijodkor, tarjima jarayonida, avvalo, u ham yozuvchi kabi ona tilida fikrlaydi, tarjimasiga ona tilida sayqal beradi”³². Darxaqiqat tajimonda albatta bu hislatlar mujassam bo‘lishi darkor.

4) o‘xshatishning formal ko‘rsatkichi³³: ... **qiz suratida ko‘ringan malak** o‘xshatish leksik birligi orqali ko‘chma ma‘no ifodalagan. “Qiz suratida ko‘ringan malak” birikmasi “Kumushning tabiat tomonidan yaratilgan benihoya go‘zalligi” ma‘nosi ifodalangan. Kumushbibi-ob‘ekt, malak-obraz, qiz suratida ko‘ringan-belgisidir. Belgi ob‘ekt va obrazlar bilan alohida bir sintaktik aloqani tashkil yetadi. Tashqi tomondan qaraganda, farishta bilan qiz o‘rtasida hech qanday aloqa yo‘qdek tuyuladi. Lekin yozuvchi Kumushbibining go‘zalligini asosiy o‘xshashlik belgisi qilib olgan. Belgi (qiz suratida ko‘ringan) asosida ikki predmet bir-biri bilan taqqoslanmoqda. Agar “belgi” (qiz suratida ko‘ringan) bo‘lmasa, Kumush bilan malak o‘rtasida o‘xshashlik bo‘lmas edi. I.To‘xtasinov tarjimasida: *Angel, embodied in the image of the girl* (qiz timsolida gavdalangan farishta) tarzida muvaffaqiyatli amalga oshirgan. Kerol Yermakova tarjimasida: *angel in the form of a girl* (qiz qiyofasidagi farishta) tarzida beriladi. M.Riz tomonidan ham so‘zma-so‘z tarjima etilgan hamda *belle-nozanin, maiden-* qiz sifatlashlari izohli ta’kidlanadi. Ushbu izohlar o‘xshatilayotgan personajga yanada joziba bag‘ishlaydi.

Tadqiqotning “O‘tkan kunlar” romanidagi kinoya leksik birligining inglizcha tarjimalarda qayta yaratilishi” faslida kinoya yumor va satiradan sub‘ektiv ibtidoning yetakchiligi bilan ajralib turishi, sarkazm esa kinoyaning yuqori bosqichiligi ko‘rsatib berilgan. O‘zbek adabiyotida kinoyaning yuzaga kelishi va kuchayishiga olib kelgan ikkita asosiy omil mavjud: davrning ijtimoiy shart-sharoitlari (ob‘ektiv omil) hamda ayni shu shart-sharoitlarda yetilgan va ijodkorlarimiz tomonidan shaxsiylangan ijtimoiy dard-kayfiyat (sub‘ektiv omil). Abdulla Qodiriy asar davomida ironik mazmunni ifodalashda leksik-frazeologik, paremik, sintaktik lisoniy vositalarni ishlatgan.

1.“Leksik-frazeologik lisoniy vositalar asarda kinoya, qochirim, kulgi, piching (sarkazm) kabi tasviriy vositalardan voqea-hodisalar va kishilarning salbiy tomonlari, xususiyatlarini fosh qilishda unumli foydalanilgan. Piching romanda o‘ziga xos tarzda ifoda etilgan: ... **“nimcha” (Nimcha- chala mulla, ilmsiz) ulamolar ham yo‘q emas edilar.** “Nimcha ulamolar” birikmasi “o‘zlariga dinni niqob qilib olgan ilmsiz kishilar” birikmasi o‘rnida qo‘llanib, kinoya orqali ma‘no ko‘chishini hosil qilgan. I.To‘xtasinov tarjimasida: ... **ulema who had failed to become Musulmankul’s close people and enjoy his favors** “ulema”(ulamo) tarzida, ya’ni birinchi komponent, kinoya vositasi tushirib qoldirilgan. Ikkinchi tarkibiy qism “ulamolar” leksik birligi tarjimada transliteratsiya orqali berilgan. “Har qaysi tarjimon tarjimaning uch bosqichi: asl nusxani idrok qilish, asl nusxa interpretatsiyasi, asl nusxani qayta ifodalashga e’tibor berishi talab etiladi”³⁴, albatta bularning barchasi bir-biri bilan bog‘liq holda amalga oshadi. K.Yermakova tarjimasida “semi- literate folk among the ulema whose knowledge was paltry”

³²Холбеков М. Таржимашунослик ва таржима танқиди. – Тошкент: Наврўз, 2015. – Б.60.

³³Қобулжонова Г. Метафора ва ўхшатиш//Ўзбек тили ва адабиёти. – № 5. – Тошкент, 1999. –Б.53

³⁴Очилов Э. Таржима назарияси ва амалиёти. –Тошкент, 2012. – Б.6

(ulamolar orasida arzimagan ilmga ega yarim savodli kishilar) adekvat tarjima orqali qayta tiklanadi. M.Riz esa ***Ulama deemed not sufficiently knowledgeable or half-literate*** (bilimsiz yoki chala savodli ulamolar) tarzida asliyatga muvofiq tarjimani amalga oshirgan;

2. Paremik vositalar badiiy asarlarda, asosan, ko'chma ma'noda qo'llanilib, matn ortidagi yashirin ma'nolarga ishora qiladi: ... ***ikki to'ng'izning gavdalari!***” birikmasi aslida “o'ldirilgan devon beklari” birikmasi o'rnida qo'llangan. I.To'xtasinov tarjimasida: “two pigs that were the lame Musulmonqul's commanders” (Bular Musulmonqulning sarkardalari bo'lgan ikki cho'chqaning jasadlari) tarzida so'zma-so'z o'girilgan. K.Yermakova tarjimasida: “two pigs, Musulman Kul-the-lame's generals, leaders” (Bular Musulmonqul cho'loq sarkardalari bo'lmish ikki cho'chqaning jasadlari) tarzida aks ettiriladi. M.Riz tarjimasida esa ushbu kinoya *bodies of two bastards, soldiers of Musulman the Lame- Musulmon cho'loq askarlari bo'lgan ikki badbaxtning gavdalari* tarzida aks ettiriladi. Xorijiy tarjimonlar tomonidan ham asliyat matnida keltirilgan kinoya ifoda vositasi so'zma-so'z tarjima etilgan. Fikrimizcha, har uchchala tarjimada ham asliyat matnidagi mazmun mutanosibligiga erishilgan.

3. Sintaktik vositalarning so'z birikmalari tobe komponentlari orasida baholash xususiyati alohida hodisa hisoblanadi. Bu turga xos bo'lgan ... ***Marg'ilon andisiga*** o'xshatishi aslida “Marg'ilonlik kelin” birikmasi o'rnida ishlatilmoqda, kinoyali o'xshatish badiiy matnning ta'sirchanligi hamda estetik qiymatini oshirmoqda. Ushbu so'z birikmasi O'zbek oyimning asar personaji Kumushga nisbatan salbiy bahosini ifodalaydi. I.To'xtasinov tarjimasida: “Margilon girl” (Marg'ilonlik qiz) tarzida, Kerol Yermakova tarjimasida “Margilan wench” (Marg'ilonlik erka qiz); M.Riz tarjimasida esa *Margilani villager- Marg'ilonlik qishloqi* tarzida aks etadi. Biroq, birikmaning ikkinchi komponenti “andi” leksik birligi “boshqa joydan kelib o'rinish qolgan, kelgindi”³⁵ ma'nolarida qo'llanilishini inobatga olsak tarjimalarda biroz g'alizlik ko'zga tashlanadi. Bizningcha, “Margilan alien” (Marg'ilonlik begona) deb berilishi, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki asliyat matnida O'zbekoyim nazarda tutgan urf-odatlar hamda yashash tarzidagi farqlar, muxtasar qilib aytganda lingvokulturologik xususiyatlar ushbu birikma orqali ifodalanmoqda.

